

Termiz shahridagi obodonlashtirish ishlari o'rganildi




Termiz shahridagi obodonlashtirish ishlari o'rganildi

Surxondaryo viloyatining har bir hududida obodonlashtirish va bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. Mahallalar, ko'chalar yangicha qiyofa va zamonaviy ko'rinish kasb etmoqda. Shu bilan birga olib borilgan ishlar qatorida yo'l qo'yilgan kamchiliklar, obodonlashtirilishiga e'tibor qaratilmagan manzillar ham bor.

Bugun viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov Termiz shahridagi "Sohil", "Jo'yjanga" va "Pattakesar" mahallalari hamda Islom Karimov ko'chasi va "Farovon" massividagi mavjud holatlarni joyiga borib o'rgandi. Ko'p qavatli uylar atroflari obodonlashtirilmagan, yo'llar va yo'laklar ta'miri oxiriga yetkazilmagan, singan ariq betonlari to'g'irlanmagan, mas'ullarning e'tiborsizligi sabab ko'chalardagi chiqindilar o'z vaqtida olib chiqilmagan, buning natijasida to'plangan chiqindilar atrofga sochilib, ahvol yana-da yomon ko'rinishga kelib qolgan.

Viloyat rahbari faqatgina markaziy ko'chalarga emas, barcha hududda birdek ishlar olib borilishi lozimligini, odamlar kayfiyatiga ta'sir qiladigan bu ishlar eng avvalo eng chekka hududlardan boshlanishi kerakligini ta'kidladi. Mas'ullarga yo'l qo'yilgan kamchiliklar, bajarilmagan ishlar ko'rsatib o'tildi. Shaharning har bir mahallasi, ko'chasi va yo'llarida obodonlashtirish va ta'mirlash ishlarini olib borish, chiqindilarni oq vaqtida olib chiqib, ko'p qavatli uylar atrofini tozalash, daraxt ko'chatlari ekish bo'yicha vazifalar belgilandi.








Image not found or type unknown

